XALQ DEPUTATLAR CHORTOQ TUMANI KENGASHINING QARORI

2023 - yil 16 - noyabr VI-54-107-6-88-K/23 Chortoq tuman hokimligi

Chortoq tumanidagi Mahalla fuqarolar yig‘inini tashkil etish to‘g‘risida

Mustaqillik yillarida mahalla institutining nufuzini oshirish nafaqat ijtimoiy-iqtisodiy, balki siyosiy, tarbiyaviy va ulkan ma’naviy ahamiyatga ega bo‘lgan ustuvor vazifa sifatida belgilanib, mamlakatimizda fuqarolik jamiyatini rivojlantirishda uning ishonchli tayanch va ta’sirchan kuch bo‘lib xizmat qilishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratish borasida keng ko‘lamli chora-tadbirlar bosqichma-bosqich amalga oshirildi.

Xususan, milliy davlatchiligimiz tarixida ilk bor shaharcha, qishloq, ovul va mahalla fuqarolar yig‘inlari o‘zini o‘zi boshqarishning hududiy birliklari sifatida O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 105-moddasida huquqiy jihatdan mustahkamlab qo‘yildi. Yuzdan ortiq normativ-huquqiy hujjatlarda fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlarini jamiyat hayotining muayyan sohasidagi ishtiroki o‘z aksini topdi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 4-martdagi “Shaharlar, posyolkalar va ovullarning mahallalarini tuzish, birlashtirish, bo‘lish va tugatish, shuningdek ularning chegaralarini belgilash va o‘zgartirish, ularga nom berish va ularning nomini o‘zgartirish tartibi to‘g‘risida”gi 48-sonli qaroriga asosan O‘zbekiston Respublikasi “Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari to‘g‘risida”gi qonunning 27-moddasiga muvofiq “Do‘stlik”, “Sohibkor” mahalla fuqarolar yig‘inlarining vakillar yig‘ilishi bayoni hamda xalq deputatlari tuman Kengashining Qonuniylik, huquq-targ‘ibot va fuqarolar xavfsizligini ta’minlash masalalari doimiy komissiyasining yig‘ilish bayoni inobatga olinib, O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6 va 24-moddalariga asosan Xalq deputatlari tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasi “Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari to‘g‘risida”gi qonunning 27-moddasiga muvofiq, “Do‘stlik” va “Sohibkor” mahalla fuqarolar yig‘inlari vakillarining quyidagi takliflari qabul qilinsin.

2. Tumandagi “Do‘stlik” mahalla fuqarolar yig‘ini hududining bir qismi va “Sohibkor” mahalla fuqarolar yig‘inining bir qismini o‘z ichiga oluvchi yangi mahalla tashkil etish hamda ushbu mahallani **“Istiqbol”** mahalla fuqarolar yig‘ini deb nomlansin. Bunda:

- “Subhidam” ko‘chasidagi 672 ta xonadon, 691 ta oila, 2352 nafar aholi (shundan hududda 22 ta ko‘p qavatli uylar mavjud bo‘lib, mazkur uylarda 516 ta xonadon, 534 ta oila, 1869 nafar aholi) ni, hududdagi 1 ta umumta’lim maktabi, 1 ta

davlat ixtisoslashgan maktabi, 1 ta maktabgacha ta'lim muassasasi, 1 ta suzish havzasi, 5 ta tadbirkorlik subyektlari;

- "Sohibkor" mahalla fuqarolar yig'ini hududidan yangi tashkil etiladigan **"Istiqbol"** mahalla fuqarolar yig'ini hududiga "Zakovat" ko'chasidan 648 nafar aholi, 173 ta oila, 184 ta xonadon, 3 ta oziq-ovqat do'koni, 2 ta umumiy oqvatlanish shoxobchalari o'tkazilsin.

Yangi tashkil etiladigan **"Istiqbol"** mahalla fuqarolar yig'ini hududida umumiy hisobda **3000 nafar** aholi, **864 ta** oila, **856 ta** xonadon, 1 ta umumta'lim maktabi, 1 ta davlat ixtisoslashgan maktabi, 1 ta maktabgacha ta'lim muassasasi, 1 ta suzish havzasi, 10 ta tadbirkorlik subyektlari mavjud bo'lishi nazarda tutilsin.

3. Fuqarolar yig'inlarida yashovchi aholining mahalla fuqarolar yig'ini binosidan uzoq masofada joylashganligi hamda yaqin masofada boshqa mahalla fuqarolar yig'ini idoralari mavjudligi, aholini yaqin masofadagi mahalla fuqarolar yig'iniga o'tkazish bo'yicha quyidagi takliflar ma'qullansin:

"Do'stlik" mahalla fuqarolar yig'ini "Nastarin" ko'chasidagi 76 ta xonadon, 95 ta oila, 473 nafar aholi mahalla fuqarolar yig'inidan 3 km uzoqlikda joylashgan bo'lib, tumandagi **"Xayrli"** mahalla fuqarolar yig'iniga yaqin joyda joylashganligini hisobga olgan holda "Nastarin" ko'chasini **"Xayrli"** mahalla fuqarolar yig'iniga qo'shish;

"Sohibkor" mahalla fuqarolar yig'ini "Peshqadam" ko'chasining bir qismidagi 12 ta xonadon, 12 ta oila, 45 nafar aholi mahalla fuqarolar yig'inidan 3,5 km uzoqlikda joylashgan bo'lib, tumandagi **"Xayrli"** mahalla fuqarolar yig'iniga yaqin masofada joylashganligini hisobga olgan holda "Peshqadam" ko'chasining bir qismini **"Xayrli"** mahalla fuqarolar yig'iniga qo'shish;

"Sohibkor" mahalla fuqarolar yig'ini "Zukkolar" ko'chasining bir qismidagi 22 ta xonadon, 48 ta oila, 160 nafar aholi mahalla fuqarolar yig'inidan 5 km uzoqlikda joylashgan bo'lib, tumandagi **"O'zbekiston"** mahalla fuqarolar yig'iniga yaqin joyda joylashganligini hisobga olgan holda "Zukkolar" ko'chasining bir qismini **"O'zbekiston"** mahalla fuqarolar yig'iniga qo'shish;

"Dildosh" mahalla fuqarolar yig'ini "To'ralar" ko'chasining bir qismidagi 65 ta xonadon, 125 ta oila, 403 nafar aholi mahalla fuqarolar yig'inidan uzoqlikda joylashganligi, **"Chig'atoy"** mahalla fuqarolar yig'iniga yaqin joylashganligini inobatga olgan holda "To'ralar" ko'chasining bir qismini **"Chig'atoy"** mahalla fuqarolar yig'iniga qo'shish;

Zafar Diyor mahalla fuqarolar yig'ini "Ustazoda" ko'chasining bir qismidagi 5 ta xonadon, 8 ta oila, 22 nafar aholi mahalla fuqarolar yig'inidan uzoqlikda joylashganligi, tumandagi **"Xayrli"** mahalla fuqarolar yig'iniga yaqin masofada joylashganligini hisobga olgan holda "Ustazoda" ko'chasining bir qismini hamda mahalla hududidagi 22-maktabgacha ta'lim tashkilotini **"Xayrli"** mahalla fuqarolar yig'iniga qo'shish;

"Navro'z" mahalla fuqarolar yig'ini "Ravon" ko'chasidagi 44 ta xonadon, 48 ta oila, 172 nafar aholi mahalla fuqarolar yig'inidan uzoqda, **"Turkiston"** mahalla fuqarolar yig'iniga yaqin masofada joylashganligini inobatga olgan holda "Ravon" ko'chasini **"Turkiston"** mahalla fuqarolar yig'iniga qo'shish;

"Bog'" mahalla fuqarolar yig'ini "Kasanachi" ko'chasidagi 9 ta xonadon, 19 ta oila, 74 nafar aholi mahalla fuqarolar yig'inidan uzoq, **"Yangiobod"** mahalla fuqarolar yig'iniga yaqin masofada joylashganligini hisobga olgan holda "Kasanachi" ko'chasini **"Yangiobod"** mahalla fuqarolar yig'iniga qo'shish.

4. Tuman Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limining “Do‘stlik”, “Sohibkor”, “Dildosh”, Zafar Diyor, “Navro‘z”, “Bog‘” mahalla fuqarolar yig‘inlarini ikkiga bo‘lish, ko‘chalarni o‘tkazish va aholiga qulaylik yaratish yuzasidan taklifi ma’qullansin.

5. Tuman arxitektura va qurilish bo‘limi, tuman Obodonlashtirish bo‘limi, tuman Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limi, tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi, tuman Statistika bo‘limi, Yer tuzish va ko‘chmas mulk kadastr tuman bo‘limlariga:

bir oy muddatda yangi tashkil etilgan mahallalar va chegara hududlari o‘zgargan mahalla fuqarolar yig‘inlarining me’yoriy hujjatlarini belgilangan tartibda o‘zgartirish vazifasi topshirilsin.

6. Chortoq tuman Ichki ishlar bo‘limi R.Usubjanovga:

tuman hududidagi chegara hududlari o‘zgargan mahalla fuqarolar yig‘inlarida yashovchi fuqarolarga yangi pasport berish va ularni ro‘yxatga qo‘yishda yangi nomlar bilan yozilishini nazoratga olish vazifasi yuklatilsin.

7. Tuman hokimi o‘rinbosarlari A.Rustamov, D.Xakimova, tuman Qurilish bo‘limiga:

bir oy muddatda yangi tashkil etilgan mahalla fuqarolar yig‘inlariga faoliyati uchun belgilangan tartibda joy ajratish yuzasidan taklif kiritish vazifasi topshirilsin.

8. Xalq deputatlari tuman Kengashining fuqarolar yig‘inlari raislari (oqsoqollari) saylovini tashkil etish hamda o‘tkazishga ko‘maklashuvchi komissiya raisi hamda a’zolariga:

yangi tashkil etilgan mahalla fuqarolar yig‘inlariga “Fuqarolar yig‘ini raisi (oqsoqoli) saylovi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq belgilangan muddatlarda fuqarolar yig‘ini raisi lavozimiga nomzodlarni aniqlash, saralash, tuman hokimi va sektor rahbarlari suhbatlariga tayyorlash hamda Qonun talablari asosida mahalla raisi (oqsoqoli) saylovini tashkil etish vazifasi topshirilsin.

9. Tuman hokimligining matbuot xizmati (R.Ummatov), “Chortoq haqiqati” gazetasi (B.Tillaev) ga mazkur Kengash qarorini ommaviy axborot vositalari orqali yoritish tavsiya etilsin.

10. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashi raisining o‘rinbosari A.Bo‘ranov zimmasiga yuklatilsin.

Xalq deputatlari tuman Kengashi raisi **A.Otaxodjaev**